

## **OTA LEKSIKASINING XALQ TOPISHMOQLARIDA IFODALANISHI**

*Khayitova Shohida Erkin Qizi*

*Termez State University*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ota konseptining leksik-semantic qolipi hadislar, topishmoqlardagi tushunchalar kesimida ishlab chiqilib, tahlilga tortilgan topishmoqlarda ota konseptining milliy-madaniy xususiyatlari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** ota, konsept, topishmoq, boshqaruv, milliy-madaniy xususiyatlar.

**Abstract.** This article analysis of the lexical-semantic pattern of the concept of the father is developed in the section of concepts in hadiths and riddles, and the national-cultural features of the concept of the father are studied in the analyzed riddles.

**Key words:** father, concept, riddle, management, national-cultural characteristics.

Topishmoq, topmacha, jumboq, matal — xalq og‘zaki poetik ijodining eng qadimiylari va ommaviy janri. Jahondagi barcha xalqlar folklorida uchraydi. Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush darajasi madaniyati, urfodatlari ma’lum darajada o‘z ifodasini topadi. Topishmoqda yechilishi mumkin bo‘lgan so‘roq majoziy shaklda ifodalanib, uning ma’nosini yashirincha bo‘ladi. Topishmoqda narsa yoki hodisa boshqa narsa yoki hodisaga o‘xshatish, o‘zaro qiyoslash, taqqoslash orqali gavdalantiriladi. Topishmoqlar ba’zan nasriy, ko‘pincha she’riy shaklda, kompozitsion va ritmik jihatdan ixcham, sodda va ohangdor bo‘ladi.

Shu bilan birga tilshunoslikning turli yo‘nalishlari bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlarning obyekti sifatida topishmoqlar yetakchilik qiladi. Aynan kognitiv yo‘nalishdagi ishlarning aksariyatida topishmoq matnlari asosiy material vazifasini bajargan. Juhon va o‘zbek olimlaridan S.S.Gorkina, O.V.Kulaga, Z.Husainova, E.Ashuraliyev kabilarning bu boradagi ishlarini ko‘rib chiqish jarayonida yuqoridagi xulosalarga kelindi.

Topishmoqlar matnidagi tushunchalarning konseptosfera tarzida tadqiq qilinishi, bizningcha, qoniqarli emas, chunki o‘zbek tilshunosligida topishmoq matnlarining konseptual tahlil bo‘yicha tadqiqini kutib turgan ishlar talaygina.

O‘zbek xalq topishmoqlarini kuzatar ekanmiz bir qancha “Ota” konseptiga oid misollarni to‘pladik. “Ota” konseptiga doir misollar va ularning tahliliga to‘xtalamiz: ***Otamdan bir meros oldim, Yerga ko‘msam chirimas.*** Ushbu topishmoq ism haqida. Ism qo‘yish Allah otalarning zimmasiga yuklagan eng asosiy vazifalardan. Shuning uchun ham bir muslimon ota-onasi bu muhim ishga alohida e’tibor ila yondashmog‘i lozimdir. O‘zi bilmasa, biladiganlardan so‘rab, o‘rganib, o‘g‘il bo‘lsin, qiz bo‘lsin, bolasiga go‘zal ism qo‘yishi kerak. Qo‘ygan ismida orzu-umid, yaxshi niyat, go‘zallik, xayr-baraka o‘z ifodasini topsin. Farzand katta bo‘lib, oq-qorani taniganda o‘z ismidan uyaladigan bo‘lmasin. Balki ismi unga ziynat bo‘lib tursin.” Xullas, ism – insonning ziynati. Farzandga go‘zal va loyiqlik ism qo‘yish esa ota oldidagi muhim vazifalardan biridir. Farzand uchun o‘z ismi otasidan qolgan eng katta meros bo‘ladi.

Keltirilgan topishmoq matnida ham yuqorida holatlarga ishora bor. Topishmoqlar matnida ota shaxsi nimagadir qiyoslanganda, albatta, o‘sha narsa eng asosiy, eng kerakli bo‘ladi. Chunki ota oilaning asosi bo‘lib, boshqaruv, ta’milot ham uning zimmasida. Quyida keltiradigan topishmoqlarda ham ota ana shunday predmetlarga o‘xshatiladi.

1. *Otasi egri, Bolasi chopqir yo‘rg‘a. – (Ariq, daryo).*
2. *Otasi bukri xo‘ja, Onasi yoyma chalpak, Bolasi shirin shakar. – (Tok bargi, uzumi).*
3. *Otasi egri-bugri, Onasi silliq juvon, O‘g‘li qo‘shiqchi, Qizi o‘yinchi. (Ariq, suv, baqa, baliq).*

Xullas, xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, topishmoqlar xalqimizning milliy-ma’naviy qadriyatlari, mentaliteti bilan bog‘liq. Ota konsepti bilan bog‘liq topishmoqlar shaxs dunyoqarashini shakllantirishda u mansub bo‘lgan xalqqa tegishli madaniyat muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi. Etnomadaniyat juda murakkab va ko‘p qirrali

ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ota konsepti aks etgan topishmoqlar xalq ijtimoiy hayotining hamma sohalarini, inson mehnat faoliyatining barcha samaralarini o‘zida mujassamlashtiradi. U odamzod tafakkuri,

aql-idrokining eng yuksak ch o‘qqilarigacha bo‘lgan tuyg‘ularning hammasini qamrab oladi. Ota konseptini semantik jihatdan keng qamrovli bo‘lgan “madaniyat” tushunchasidan ajratib bo‘lmasligidan dalolat beradi.

Topishmoqlarda ota konseptining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash tadqiqotchini bilish jarayoni sari yetaklaydi. Inson voqelikni o‘z sezgilari orqali idrok qiladi, ma’lum ma’lumotlarga ega b o‘ladi. Topishmoqlarda aytuvchi tomonidan tinglovchiga yetkazilayotgan “nimadir” tinglovchining sezgi a’zolari orqali idrok etilmaydigan voqeа yoki hodisa bo‘lsa, u holda ko‘rish va sezish a’zolarining roli ham yo‘qoladi. Bu esa muloqotga krishayotgan kishilarning milliy-ma’naviy qadriyatlarni qay darajada o‘zlashtirganligi, bilim saviyasi bilan bog‘liq.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Husainova Z. O‘zbek xalq topishmoqlarining asosiy xususiyatlari va zamini. Filol. fanlari nomzodi. diss. – T., 1967.
2. Рахматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “тўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари. Фалсафа докторлиги (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2019. – 13-бет.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли, бешинчи жилд. – Тошкент: «ЎзМЭ», 2008. – 137-бет.
4. МАМАТАЛИЕВА, Н. Х. (2018). МЕТОДЫ И МАТЕРИАЛЫ ДЛЯ ТОГО, ЧТОБЫ ПРЕПОДАВАТЬ ПРОЕКТИРОВАНИЕ ОФИЦИАЛЬНЫХ ДОКУМЕНТОВ. Развитие и актуальные вопросы современной науки, (2), 57-60.
5. МАМАТАЛИЕВА, Н. Х., & МУХИДДИНОВА, С. Х. К. (2018). ПРОБЛЕМЫ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И НЕКОТОРЫЕ РЕШЕНИЯ. Наука среди нас, (4), 305-307

6. Narmuratov, Z. R. (2020). SOME ENGLISH PROVERBS WITH THE CONCEPT SCIENCE AND THEIR UZBEK EQUIVALENTS. *Theoretical & Applied Science*, (4), 524-527.
7. Narmuratov, Z. R. (2021). Proverb is as means of verbalization of concept. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (7-1), 124-129.
8. BAKHRITDINOVICH, R. K. The Approach of Paremias in Parallel Corpora. *JournalNX*, 6(05), 216-222.
9. Ruziev, K. B. (2020). Proverbs and corpus linguistics. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (6), 64-67.
10. Ruziyev, K. (2021). Paremiological units and their differences. *InterConf*.
11. Ruziyev, K. (2021). Etymology of the word and term paremia. *InterConf*.
12. RUZIYEV, X. B., & SIDIKOVA, S. A. K. (2019). Translation problems of proverbs and some special tip for translating from english into uzbek. *Наука среди нас*, (5), 100-105.
13. Рузиев, Х. Б. (2018). Semantic analysis of the words of value and respect in English and Uzbek. In *Человекознание* (pp. 40-41).
14. Рузиев, Х. (2017). Исторические и теоретические аспекты определения понятия "неологизм". К истории возникновения термина "неологизм". *Евразийский научный журнал*, (4), 391-392.
15. Ruziev, K. (2022). The phenomenon of synonymy in English proverbs. *Scientific Collection «InterConf»*, (132), 197-201.
16. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/topishmoq/>